

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahridinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriiddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурбаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullahovich	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n., dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
Muxtidinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



INNOVATION FAOLIYATNING ASOSI – INTELLEKTUAL SALOHIYAT

Kaxorova Anora Nusratovna

TDIU “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasni assistenti

Annotatsiya: maqolada jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan, intellektual salohiyat va bu borada sarflanadigan investitsiyalarning ahamiyati hamda ushbu jarayonning O'zbekistondagi kechagi va bugungi holati, amalga oshirilayotgan islohotlar keng tahlil qilingan. Shuningdek, kelajakda jamiyat va ta'lim sohasini innovatsion rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish va o'zbek xalqining buyuk ajoddlari ijodini dunyoga targ'ib qilish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ta'lim, tarbiya, innovatsiya, investitsiya, salohiyat, mahorat, pedagogika.

Аннотация: в данной статье подробно анализируется значение науки, интеллектуального потенциала и инвестиций в этой связи для развития общества, а также вчерашнее и сегодняшнее состояние этого процесса в Узбекистане, проводимые в связи с этим реформы. Также в дальнейшем были выдвинуты предложения по инновационному развитию общества и сферы образования, повышению интеллектуального потенциала населения, особенно молодого поколения, популяризации в мире творчества великих предков узбекского народа.

Ключевые слова: наука, образование, воспитание, инновации, инвестиции, потенциал, навыки, педагогика.

Abstract: In this article, the importance of science, intellectual potential and investments in this regard for the development of society, as well as the yesterday and today's state of this process in Uzbekistan, and the reforms implemented in this regard, are extensively analyzed. Also, in the future, proposals were put forward for innovative development of society and the field of education, increasing the intellectual potential of the population, especially the young generation, and promoting the creativity of the great ancestors of the Uzbek people to the world.

Key words: science, education, upbringing, innovation, investment, potential, skills, pedagogy.

KIRISH

Asrlar davomida erishilgan rivojlanish darajasi, takomillashtirilgan fanlarning nazariy va falsafiy hamda amaliy jihatlari asosan X asrdan boshlangan bo'lsa, texnika va texnologiyalarni ixtiro qilinishi, ularni jadallik bilan rivojlantirish XIX–XXI asrlarga to'g'ri keladi, barcha innovatsion mahsulotlar aynan shu davrda yaratildi.

Ushbu davr ichida yuqori sur'at bilan rivojlanish darajasi dastlab “Buyuk ipak yo'li” mamlakatlardan Yevropa, keyinchalik esa Amerika va Osiyo (Sharqi Osiyo) qit'alariiga o'tgan. Erishilgan taraqqiyotning barchasi – ixtiolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ya'ni innovatsion faoliyatning mahsuli hisoblanadi, ular ikki yuz yillikdan beri insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИI

“Innovatsiya” atamasi bugungi kunda juda keng qo'llanilishi uning mazmun-mohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababdan mazkur atamaning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etgan va ochib bergen ayrim iqtisodchi-olimlarning qarashlarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Jumladan, rus iqtisodchi-olimi I. T. Balabanov^[7] fikriga ko'ra: “innovatsiya – nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllalarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o'zida namoyon etadi”.

Shuningdek, A. B. Borisov^[8] innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasini anglatadi.




O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham – innovatsiya atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha katta izlanishlar olib borishgan va o'zlarining zamonaviy talqindagi ta'riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R. I. Gimush, F. M. Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda – yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim, deya ta'rif berilgan.

B. E. Toshmurodova, N. Jiyanovalar [9] fikriga ko'ra, innovatsiya tushunchasi o'z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxona ishi usulidagi barcha yaxshi o'zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yer shari aholisining soni jadal sur'atlar bilan ko'payib, mavjud resurslar esa qisqarib bormoqda. Milliard aholi XVII asrgacha shakllangan bo'lsa, ikkinchi milliard aholi uchun 200 yil talab qilingan. Hozirga kelib, har bir milliard aholining o'sishi uchun 20–30 yil yetarli bo'lib qoldi. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan resurslarning chegaralanganligi, yil sayin ularni kamayib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolar har bir mamlakat oldiga qo'yilgan asosiy vazifa bo'lib qoldi. Jumladan, 1994-yil O'zbekiston aholisi 22,2 mln. kishi bo'lib, yer maydoni 447,4 ming kv. km ni tashkil qilar edi. Bugunga kelib aholi soni 34 mln.ga yetdi, yer maydoni esa o'zgarmaydi.

Ushbu global muammolarning yechimini topish uchun insondan idrok etishni, fikr-mulohazalar, ixtiolar qilishni talab qiladi, innovatsion faoliyatga zarurat shakllanadi.



1 - ras m: Innovatsion rivojlanishni shakllantirish uslubiyati

Innovatsion rivojlanishni shakllantirish jarayoni asosan uchta ta'minlovchi mexanizmdan iborat va ularning mohiyati har xil miqdorga ega. Xususan, amaliy mohiyati bo'yicha: birinchi o'rinda intellektual salohiyat, ikkinchi o'rinda investitsiya va uchinchi o'rinda tashkiliy tizimlardan iboratdir. Intellektual salohiyat bo'lmasa, investitsiyaga ham ehtiyoj qolmaydi, tashkiliy tizim ham zarur bo'ymaydi. Hozirgacha, O'zbekistonda ularning o'zaro bog'liqligining miqdoriy nisbati aniqlanmagan. Albatta, turli ixtiro va tadqiqotning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, nisbatlar har xil bo'ladi. 1-rasm bo'yicha $MIR = A + B + S + D = 100\%$, bu yerda (A) ning salmog'i yuqoriligidagi shubha yo'q.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, agar intellektual salohiyat (A) mazkur tizimda yetakchi bo'lsa, mamlakatimizda intellektual salohiyatning holati qanaqa, potensiali qancha va uni yanada rivojlanishish uchun nima qilish kerak, va'lum bo'ladi. Shuningdek, innovatsiyani rivojlanishiga, ilmiy tadqiqot-ixtirolarga ajratilgan investitsiyalardan (D) qay darajada samarali foydalanimoqda kabi savollarga javob topish lozim bo'ladi.

Inson tug'ilishi bilan unda intellektual faoliyat shakllana boshlaydi va u har bir inson uchun turli nisbatga ega bo'ladi. Bilim, ta'lif olayotgan bolalarimizni intellektual salohiyati bo'yicha shartli ravishda uch guruhga bo'lishimiz mumkin, ya'ni:



2 - rasm: Millatning intellektual salohiyatini takomillashtirish mexanizmi

Tabiiyki, ikkinchi guruh birinchiga, uchinchi guruh ikkinchiga intiladi. Ushbu jarayonda asosan bilim beruvchi pedagog va uning mahorati, oila va atrof-muhit muhim hisoblanadi. Guruhda ta'lim olayotgan bolalar, talabalar yuqorida qayt etilgan uch guruhni tashkil qiladi, ya'ni, ular yuqori (IS1), o'rta (IS2) va past (IS3) darajadagi intellektual salohiyatga egadirlar. Ularning salmog'i fanlar va mutaxassislik bo'yicha har xil miqdorga ega. Ushbu holatni to'g'ri baholab, o'quv jarayonini samarali tashkil qilish pedagogning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda intellektual salohiyatni baholash bo'yicha usullar va ba'zi ko'satkichlar mavjud, ammo, ular to'liq talablarga javob bermaydi, takomillashtirish lozim. Ya'ni qaysi omillar qay darajada intellektual salohiyatni oshirishini baholash muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirishga nasliy asos bor. Ya'ni tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda faqat O'zbekistonda yashab, ijod qilgan allomalarimiz al-Xorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg'oniy, Ali Abu ibn Sino, Ulug'beklar tomonidan yaratilgan va butun dunyo-insoniyat tan olgan fundamental fanlar bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qtogani yo'q. Ular tomonidan yaratilgan matematika, astronomiya, tibbiyot, fizika, tabiiy fanlar, qonunshunoslik hamda falsafa kabi fundamental fanlar asrlar davomida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

Afsuslar bo'lsinkim, sobiq Ittifoq davrida yuqorida qayt etilganlar ya'ni, dunyoviy bilimlarga asos solgan allomalarimiz hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi manbalar, axborotlarni xalqimizga ayniqsa, yoshlarga yetkazib bera olmadik. Bu borada Maskva tomonidan ma'qul darajada to'siqlar, cheklanishlar mavjud edi. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarda xususan, 2017-yilgacha hech qanday to'siqlar, chegaralanishlar yo'q davrda ham ilmiy tadqiqotlarning mamlakatni rivojlantirishdagi o'rniغا, rivojlanishning asosiy lokamativi ekanligiga, qadr-qimmatiga yetarli darajada e'tibor berilmadi. O'zbekiston fanlar akademiyasi yo'qolish darajasiga kelib qolgan edi, ba'zi ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. O'zbek xalqining g'ururi olimu-allomalarining hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi axborotlar matbuot, radio-televideniyada qisman yoritilib berildi. Fikrimizcha, bu yetarli emas edi. Ular haqida yozilgan adabiyotlar yetarli nushada chop etilmaganligi sababli ommanning, yoshlar-imizning talabini to'liq qondira olmadik. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham yetarli e'tibor berilmadi. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur mamlakatlarining rivojlanish cho'qqisiga chiqqan yillar ilmiy tadqiqotlarga Davlat byudjetidan yetarli miqdorda mablag'lar ajratilgan edi.

Respublikada ilmiy salohiyatni yanada oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotga, yaqindan yangi ixtirolarni amalga oshirishga undash, o'zbek millatini ilm-fan sohasidagi buyuk allomalarining hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganish, ularni xalqaro darajada targ'ibot qilish maqsadida o'z yo'nalishlari bo'yicha xalqaro fondlar hamda muzeylear tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Taklif sifatida, Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkilotchiligidagi al-Xorazmiy xalqaro fondi va muzeysi O'zbekiston fanlar akademiyasining Matematika ilmiy tadqiqot institutida, Beruniy xalqaro fondi va muzeysi Urganch davlat universitetida, Abu Ali ibn Sino xalqaro fondi va muzeysi Buxoro davlat tibbiyot institutida, Mirzo Ulug'bek xalqaro fondi va muzeysi Samarcand davlat universiteti tarkibida shakllantirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR


Rivojlangan mamlakatlar innovatsion faoliyat uchun moliyaviy resurslarni davlatning xususiy manbalaridan to'playdilar. G'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlari uchun moliyaviy resurslarni ITTKI uchun davlat va xususiy kapital o'rtasida teng taqsimlanishi xosdir. Ma'lumki, ilmiy salohiyat birinchi navbatda fanlarning fundamenti tadqiqotlarni rivojlantirishga investitsiyalarning hajmi, patentlar va litsenziyalarning soni, jahon ilmiy adabiyotiga ulush va boshqalar bilan belgilanadi.

Xalqaro fondlarning mablag' jihatdan shakllanishi ichki va tashqi tushumlardan iborat bo'ladi, ya'ni, Innovatsion rivojlanish vazirligidan, yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalaridan, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlardan, ixtiyoriy darajada tashkilotlar va jismoniy shaxslar hamda xorijiy mamlakatlardagi o'zbekistonlik fuqarolar hisobidan shakllantirish mumkin.

Fond mablag'laridan allomalarining hayoti va ijodi, ixtirolari natijalarini o'rganish, xorijiy mamlakatlardagi ularning qo'lyozmalarini olib kelish, bir necha tillarda tarjima qilib, yetarli nusxada chop etish, fundamental fan



sifatida yo'nalishlar bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazish va axborot disklari tayyorlanib, mamlakat hududida hamda xorijiy mamlakatlardan ilm ahliga ulardan ommaviy targ'ibot uchun foydalananishga sarflanadi. Natijada, intellektual salohiyatga ega bo'lgan innovatsion faoliyat ko'rsatayotganlar uchun, ayniqsa, yoshlarimizni ma'lum darajada ilmiy tadqiqot ishlariga yanada ko'proq yo'naltirishga va buyuk allomalarimiz haqida xorijiy mamlakatlarda ham targ'ibot qilishga imkoniyat yaratiladi. Har uch yilda bir marta matematika, tibbiyot, astronomiya kabi fundamental fanlarning muammolariga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar Buxoroda tibbiyot yo'nalishida, Xorazmda matematika fanlari bo'yicha, Samarqanda astronomiya fanlari bo'yicha o'tkazilsa, jumladan, dunyoning yetuk matematiklari, astronomiklari yig'iladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ular O'zbekistonda olib borilayotgan innovatsion faoliyat va erishilayotgan natijalar bilan tanishadilar. Biz esa ularning ilmiy faoliyatlarini natijalarini bilib olamiz. Shuningdek, o'zaro fikr almashish natijasida fundamental fanlarning yanada tezroq rivojlanishiga asos yaratiladi.



3 - rasmi: 2001–2022-yillarda buyun dunyoda ilmiy-tadqiqot va rivojlanishga xarajatlar va YaIM ning o'sishi
Manba: The Global Innovation Index 2021

Yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlar YaIMning 3 foizga yaqinini tashkil qiladilar. Moliyalashtirish tizimi orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirish mumkin. Innovatsion faoliyatda korxonalar, sanoat kompaniyalari, moliya sanoat guruhlari, kichik innovatsion biznes, investitsion va innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv jarayonlarida ishtiroy etadilar.

Fond mablag'laridan allomalarining hayoti va ijodi, ixtirolari natijalarini o'rganish, xorijiy mamlakatlardagi ularning qo'lyozmalarini olib kelish, bir necha tillarda tarjima qilib, yetarli nusxada chop etish, fundamental fan sifatida yo'nalishlar bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazish va axborot disklari tayyorlanib, mamlakat hududida hamda xorijiy mamlakatlardan ilm ahliga ulardan ommaviy targ'ibot uchun foydalananishga sarflanadi. Natijada intellektual salohiyatga ega bo'lgan innovatsion faoliyat ko'rsatayotganlar uchun, ayniqsa, yoshlarimizni ma'lum darajada ilmiy tadqiqot ishlariga yanada ko'proq yo'naltirishga va buyuk allomalarimiz haqida xorijiy mamlakatlarda ham targ'ibot qilishga imkoniyat yaratiladi. Har uch yilda bir marta matematika, tibbiyot, astronomiya kabi fundamental fanlarning muammolariga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar Buxoroda tibbiyot yo'nalishida, Xorazmda matematika fanlari bo'yicha, Samarqanda astronomiya fanlari bo'yicha o'tkazilsa, jumladan dunyoning yetuk matematiklari, astronomiklari yig'iladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ular O'zbekistonda olib borilayotgan innovatsion faoliyat va erishilayotgan natijalar bilan tanishadilar. Biz esa ularning ilmiy faoliyatlarini natijalarini bilib olamiz. Shuningdek, o'zaro fikr almashish natijasida fundamental fanlarning yanada tezroq rivojlanishiga asos yaratiladi.



Moliyaviy ta'minotsiz innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar solsak, mamlakatni innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun ilm-fanga davlat byudjetidan eng kamida 2 va undan ortiq foizda mablag' ajratilishi lozim ekan. Yaponiya, Janubiy Koriya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar 3–5 foiz mablag' ajratilgan yillari yuqori o'sish darajasiga erishganlar. O'zbekistonda 2017-yilgacha ushbu ko'rsatkich 0,3 foizga ham yetmas edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyatga alohida e'tibor qaratib, o'z ma'ruzalarida innovatsion yondashuvvsiz, ilm-fan taraqqiyotisiz mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta'minlab bo'lmasligini ta'kidlagan edilar. Keng qamrovli ziyoiliy-olimlar muxokamasidan so'ng 2019-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining "Iml-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni hayotga tatbiq qilishning amaliy jihatlarini ta'minlash maqsadida Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika Kengashi tashkil qilindi. Ularni tashabbuslari bilan Fanlar akademiyasi va uning tarkibidagi Ilmiy tadqiqot institutlari yangi talablar asosida qayta shakllantirildi. Ushbu tizimdaggi ilmiy muassasalar soni 20 tadan 35 taga yetkazildi. Har yili amalga oshiriladigan akademiklikka saylanish jarayoni yana davom yettiriladigan bo'ldi. Akademiklar, ilmiy xodimlar moddiy va ma'nnaviy jihatdan rag'batlantirildi. O'tgan uch yil davomida ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadida ularning ish haqlari 3 barobar oshirildi. Ilmiy darajaga ega bo'lgan fan doktorlar va nomzodlari hamda o'z yo'nalishlari bo'yicha (PhD) doktorlari uchun alohida ustama haq belgilandi.

Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, qisqa muddat ichida uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish uchun innovatsiyani tub mohiyatini ochib bergan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida "... biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'yan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" deb ta'kidladilar. Mamlakatimizda 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili" deb nomlashni taklif qilinganligi beziz emas. Shundan kelib chiqib, ilm-fan hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga yetarli miqdorda mablag' ajratiladi. Bir necha o'nlab Davlat dasturlari, fundamental amaliy loyihalarni bajarish vazifa qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari asosida Innovatsion vazirlik tashkil qilindi, qisqa vaqt ichida vazirlikning tashkiliy tizimi, tarkibi shakllantirildi, kerakli mutaxassislar bilan ta'minlandi. Vazirlik oldida innovatsion faoliyatni samarali tashkil qilish, ilm-fan yo'nalishlarini koordinatsiya qilish, ularni o'zaro bog'liqligini baholash, buyurtmalarini talablar asosida ilmiy tadqiqot loyihalarini shakllantirish va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari muammolarining yechimini topishga ko'proq investitsiya kiritish hamda innovatsion faoliyat natijalarini amalda keng qo'llashni tashkil qilish, tadqiqotlar natijalarini tijoratlash kabi vazifalar qo'yildi.

Albatta, innovatsion faoliyatni murakkab jarayonligini hisobga olsak, yuqorida qayt etilgan muammolarning samarali, oqilona va muqobil yechimini topish uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrler kerak. Davlatimiz rahbari ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib, Oliy Majlisga murojaatnomasida "... tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlerini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab, oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik". Shuningdek, Murojaatnomada maktablarning o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, oliy ta'lim standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish hamda mutaxassislikka aloqasi bo'limgan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish kabi vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston yoshlari – bolalarimizning ilmiy salohiyatga moyilligi, ongli tafakkuri va aql-idroki hamda fikrashi boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Buni butun dunyo tan olgan buyuk allomalarimiz yurti O'zbekiston bo'lganligi uchun nasliy omil desak xato bo'lmaydi. Ushbu holatni mustaqillik yillarida yoshlarimiz xalqaro darajadagi ko'plab tanlovlarda o'zlarining yutuqlari bilan asoslab berdilar. Ayniqsa, fundamental fanlar – matematika, kimyo, shuningdek, musiqa hamda sportning ko'plab turlaridan jumladan, shaxmat kabi aqliy yo'nalishlardan butun jahon olimpiadalarining sovrundorlari bo'lishmoqda. Birgini Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi matematika faniga ixtisoslashgan maktabdan oxirgi 20 yil ichida 37 tadan ortiq o'quvchilar matematika fanidan jahon fan olimpiadasi sovrindorlari bo'lishdi. Agar ushbu maktab murabbiylari moddiy va ma'nnaviy jihatdan rag'batlantirilsa, ularning o'quv-metodik hamda pedagogik mahoratlarini asos qilib barcha viloyatlarda tashkil qilinsa, fan sohasidagi olimpiada g'oliblari yanada ko'proq bo'lardi. Ushbu ijobjiy yutuqlar yaxshi, o'zimiznikni, lekin, yoshlarimizning intellektual salohiyatini ko'rsatish borasida foydalanilmagan imkoniyatlarimiz, zaxiralalarimiz ko'p.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 10-sentyabr kuni Toshkent shahridagi Prezident maktabiga tashrifda chog'ida pedagoglar bilan muloqotida "... men sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning ko'zini, bilimini, g'urur-iftixorini ko'rib, yo'llimiz to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo'lganingiz uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman" – deya ta'kidlagan edilar.



Aksariyat ota-onalar farzandlarining qabilyatidan, qaysi fanni yaxshi ko'rishi, yaxshi o'zlashtirishidan qat'i nazar ularning kasb tanlashini cheklab qo'yishadi. Farzandi fundamental fanni qiziqib, yaxshi o'qib, o'zlashtirgan bo'lsa ham ba'zi ota-onalar o'z farzandining qobilyatini, imkoniyatini inobatga olmasdan – sen huquqshunos yoki iqtisodchi yohud bojxona sohasidagi kasbga ega bo'lsan deb bolaning taqdirini hal qilishadi. Bu albatta bolaning intellektual salohiyatidan amalda to'liq foydalanish nuqtayi nazaridan salbiy holatdir.

Tan olish kerak, ushbu sohaga yetaricha e'tibor bermaymiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jismoniy mehnat bilan shug'ullanadiganlarning o'zini ovqatlanish ratsioni, aqliy mehnat sohasida faoliyat ko'sratuvchilarining o'z ratsioni bo'lishi lozim. Buning uchun O'zbekistonda boshqa mamlakatlarga nisbatan imkoniyatlar ko'proq ya'ni, intellektual salohiyatni oshirishga imkoniyat beruvchi oziq-ovqat ratsioni – yong'oq, mayiz, asal, sarimsoq, tuxum, baliq kabi mahsulotlar o'zimizda tabiiy sharoitda yetishtiriladi. Faqat, biz ota-onalardan, tarbiyachi-pedagoglardan talab – farzandlarimiz aql-zakovatini oshirishga yordam beradigan ovqatlanish ratsionidan foydalanishimiz lozim. Afsuski, biz ota-onalar bunga e'tibor bermaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot mavzusini o'rganish davomida shuni tushunib yetdimki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun har bir tashkilot harakat qilishi lozim. Hozirgi tezlikda rivojlanib borayotgan davrda an'anaviy iqtisodiyot bilan boshqa mamlakatlar bilan raqobatga kirishib bo'lmaydi. Buni dunyodagi kuchli rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham ko'rib chiqdik. Ular mablag'larining juda katta qismini ilmiy tadqiqot ishlamalariga, rivojlanishga yo'naltiradilar, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni qo'llab-quvvatlaydilar.

Jahon miqyosida raqobatbardosh va fanga asoslangan iqtisodiyot kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlanish ekotizimining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa rivojlanigan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o'sishini kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlanish ekotizimi ta'minlab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barcha mutassaddi tashkilotlar oldiga qo'ygan topshiriqlariga binoan mamlakatimizda innovatsion muhitni rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda Global innovatsiyalar indeksi ko'rsatkichida 2030-yilga kelib 50-pog'onagacha ko'tarilishi zarur.

Mutaxasislarni o'z sohalarida kiritilgan innovatsiyalar bo'yicha yiliga kamida bir marta o'qitish, ularga mavzu bo'yicha mamlakatimizdagи va xorijdagi metodlarni o'rgatib borish, iloji bo'lsa xorijda tajriba orttirishni yo'lga qo'yish lozim;

Yosh mutaxasislarni tajribali mutaxassislarga biriktirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи "Ta'lim to'g'risida"gi 464-l-son Qonuni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagи "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 463-l-son / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya prezidenti devoni xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2020-yil 21-fevral, №38 (7540), 1 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2020-yil 25-yanvar, №19 (7521), 2-4 betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 31-yanvar kuni poytaxtimizning Olimlar ko'chasidagi ilmiy-tadqiqot institutlariga tashrifi chog'idagi nunqi // Xalq so'zi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2020-yil 1-fevral, №24 (7526), 1-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 10-sentyabr kuni Toshkent shahrida ish boshlagan Prezident maktabiga tashrifi chog'idagi nunqi // Xalq so'zi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2019-yil 11-sentyabr, №188 (7418), 1-bet.
7. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент, 2001.
8. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000.
9. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 11-b.
10. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni. www.lex.uz
11. Махмудов Н., Акабирова Д. Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан в период модернизация экономика. Монография – Т.: "Иқтисодиёт" 2011 г. 331 стр.
12. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.